

YOSH AVLODNI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDA XALQ QO'SHIQLARINING AHAMIYATI VA TUTGAN O'RNI.

Nurullayev Y.F.

*Buxoro Psixologiya va Xorijiy Tillar Instituti.
Musika ta'limi yo'nalishi II-bosqich magistranti.*

Nurullayev F.G.

Ilmiy rahbar- P.f.f.d (PhD) prof. Bux DPI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq qo'shiqlarining yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashdagi o'rni haqida bayon etilgan. San'at va she'riyat - inson qalbi memori ekanligi yana bir bor ushbu maqolada o'z aksini topdi.

Kalit so'zlar: xalq qo'shiqlari, musiqa, san'at, yosh avlod, tarbiya, odob-axloq.

Аннотация: В данной статье описывается роль узбекских народных песен в воспитании молодого поколения совершенными людьми. Это еще раз подтверждает, что искусство и литература – это скульптор человеческого сердца.

Ключевые слова: народные песни, музыка, искусство, молодое поколение, образование, нравственность.

Yosh avlodning musiqiy iste'dodini, madaniyatini yuksaltirish, xalqning ma'naviy boyligi xalq qo'shiqlari durdonalarini sevib o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa uz navbatida, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. San'at va shariyat adabiyoti, inson qalbi memori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xalq musiqa san'ati, navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyatiga ega bo'lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir. U uzinig goyaviy-badiiy mazmuni bilan yosh avlodni xalkimizning utmishi va bugungi xayotini teran anglash, milliy kadriyatlarimizni kardlash va xurmat kilishga urgatadi. Shuningdek, u kishi ruhini va fikrini yuksaltiradi, shaxsni ruhan poklaydi, boyitadi va komillik sari yetaklaydi. Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari Platon va Aristotel ham har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashda musiqaning o'rniga alohida ahamiyat bergan.

Shuningdek, Sharq musiqashunoslik ilmining asoschisi, uning rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan serqirra ijodkor, mutafakkir Abu Nasr al-Forobiy ham shaxsning ma'naviy kamoloti uchun muhim bo'lgan axloq – odob tarbiyasi bilan birga

musiqa tarbiyasi bilan ham shug'ullanib, ushbu tarbiyalarning o'zaro chambarchas bog'liq holda olib borish g'oyasi uning diqqat markazida bo'lgan. Zero, musiqa seyrining ijobiy ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati bolaning yurish-turishi, hatti-harakati, insonga va tabiatga munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. U o'z asarlarida yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish masalalariga salmoqli o'rin ajratgan. Eng avvalo, musiqa shaxsni axloqiy sifatlarini shakllantirishdagi ijobiy xususiyatlarini alohida ta'kidlab, shunday yozadi: "musiqa shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatini yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi". Uning ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida musiqaning inson hayoti davomidagi ahamiyatini alohida qayd etib, "Ey musiqa olami, yaxshiyamki, sen borsan, agar sen bo'lmaganingda insonning ahvoli ne kechar edi", - deb xitob qiladi.

Sharq musiqa ilmidagi yangi davr ochgan buyuk qomusiy olimlarning yana biri Abu Ali ibn Sino ham musiqaning shaxsni ma'naviy tarbiyasiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida xususiyatni munosib baholagan. U "Bolaning yoshligidan boshlab musiqiy hissiyotni tarbiyalash muhim – bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi", degan g'oya uning tarbiyasida alohida o'rin tutgan. Xalq ko'shiklarimiz ukuvchilarni bepayon vatanimizga cheksiz muhabbat, xalqimizga xamjixatlik, dustlik va insonparvarlik tuygularni tarbiyalaydi.

Mehnatni ulug'lovchi ko'shiklar ukuvchilar kalbida kator ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi, ma'naviy olamini ustirib borishga xizmat kiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish orqali qo'shiqlar mazmunidagi axloq-odob, pand-nasihat, vatanga, xalqqa muhabbat, millatimizga xos bo'lgan hayo, ibo, andishalik, muomala madaniyatiga oid insoniylik fazilatlarni singdirib borishni taqozo etadi.

Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning musiqiy-axloqiy tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda ustozlardan yuqori pedagogik faoliyatni talab etadi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarning musiqiy badiiy didini ma'lum bir mezonlarga mos darajada shakllangan, badiiy-axloqiy tasavvur, dunyoqarash, fikrlash, baholay olishning yaqqol bir namuna sifatida tasavvur qilish qiyin. Shuni ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar musiqa janrlari va uning xususiyatlari to'g'risida juda oz ma'lumotga ega.

Shu tufayli hali ularning musiqiy –ma'naviy dunyosini uyg'otish uchun o'qituvchilardan anchagina mehnat va sa'y-harakatni talab etadi. Bu jarayonda o'quvchilar musiqiy-estetik didlari hali mavhum darajada bo'ladi. Ularga berilgan birinchi savollardan o'qituvchi bunga ishonch hosil qilish mumkin. Masalan o'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqishi va munosabatini aniqlash maqsadidagi "Sen qanday (qaysi) qo'shiqni yaxshi ko'rasan?", "Vatan haqidagi qanday qo'shiqlarni bilasan?", "O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqasini kim yozgan?", "Qaysi o'zbek

xalq qo‘shiqlarini nomini bilasan?” kabi savollarga tayinli javob olish qiyin bo‘ladi. O‘quvchi bu savollarga qanday javob berishni ham bilmay dovdirab qolishi, yoki javoblar noaniq va pala partish bo‘ladi.

Beshinchi, yettinchi sinflarda o‘quvchilar kuylash va tinglash uchun berilgan asarlarni bu qo‘shiq yoki kuy qaysi janrga mansubligini, u kim tomonidan yaratilganligi, g‘oyaviy badiiy mazmuni, xalq musiqasi yokikompazitor ijod mah suli ekanligini, bastakor ijodining ayrim jihatlari haqida bemalol ham so‘zlab beradilar. Har bir o‘quvchi har kuni turfa musiqiy ohanglar ta’sirida bo‘ladi.

Hayotning har bir lahzasida turli tuman janr va uslublardagi qo‘shiqlarga duchkeladi. Ammo ularning ma’lum qismigina ko‘pchilikning tiliga tushganki aksincha, ayrim katta yoshdagi bolalar, o‘spirinlar, talabalar tomonidan telefonga tushirilgan, disklarga yozib olingan, chet el xalqlariga tegishli, Ularga taqlid qilib yaratilgan, saviyasi past musiqalar, kliplar ham yosh bola ongida o‘zining izini qoldirishi mumkin. Bu o‘rinda musiqa darslari jarayonida o‘quvchilarga birinchi navbatga xalq musiqa merosimiz, xalq qo‘shiqlari namunalariga keng o‘rin berish, musiqa o‘qituvchilari oldidagikatta vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo‘shiqlari yosh avlodni vatanga mexr- muxabbat, sadoqat ruhida, ota –onaga, insonlarga hurmat izzat ruhida kamol topishlarida, komil inson bo‘lib voyaga yetishishlarida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. H.Nurmatov.”Musika va estetik madaniyat-Toshkent.T.D.P.U.1995 yil
2. O‘quvchilarda musiqiy-nafosat tarbiyasini shakllantirish yo‘llari.T: 1992 yil
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыки// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. [FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS](#). Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. [METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION](#). Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. F.G.Nurullayev [O ‘QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO ‘SHIQLARINI O ‘RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI](#). PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL Vol. 75 No. 1, 2025. 148-152
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Мусика таълимида Бухоро фольклор кўшиқларига кўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.

9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.
11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
12. Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор кўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.
14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Амати Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159
15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.
16. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
17. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN:2181-1601, 2021.pp.570-575.
19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
20. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 **Accepted** 14 May2022.
21. Nurullayev. “Musiqqa ta’limida Buxoro folklor qoshiqlarini o’rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari”-(PhD) Diss.ishi. 2021y
22. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

23. Нуруллаев Ф.Г. [Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании](#)// Academy, № 3 (66), 48-50, ООО «Олимп».
24. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.
25. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.
26. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.957-963.
27. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-[MUSIQIY TOVUSHLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USHLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024, Conferencea 1 (1),74-78
28. F.G. Nurullayev, Firdavs To‘xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1,Tom-2,12, 8-15 betlar
29. F.G.Nurullayev, Xasanova Gulchehra Saidovna-[FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#), International journal of artificial intelligence, ISSN: 2692-515X 2024/11/3
30. Egamov O.S., Nurullayev F.G.,[BUXORO VOHASI FOLKLOR QO ‘SHIQ LARI O ‘ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#). Conferencea, 1(1), 2024.123–130.R. <https://conferencea.org/index.php/conferenceas/article/view/1207>